




SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-may oyi
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-may oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **292,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **88,1** mln. AQSh dollariga yoki **43,0** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-may, ming. AQSh dollari)

	2020-yil	2021-yil	O'sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	204 778,0	292 923,2	143,0 %	x
Eksport 	52 196,9	94 124,6	180,3 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	51 657,8	93 645,8	193,8	99,5
 <i>xizmatlar</i>	539,1	478,8	88,8	0,5
Import 	152 581,1	198 798,6	130,3 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	152 578,5	198 798,6	130,3%	100,0
 <i>xizmatlar</i>	2,6	0,0	0,0	0,0
Saldo 	-100 384,2	-104 674,0	x	x




Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **94,1** mln. AQSh dollariga (**80,3** % ga ko'paydi) va import hajmi **198,8** mln. AQSh dollariga (**30,3** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **104,6** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da.)



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-may oyida **292,9** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **43,0** mln. AQSh dollariga ko'paydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, va Qozog'iston, bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Avstriya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-may)






Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (77,0 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (66,6 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (51,4 mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (36,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo, jahonning 40 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAda salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (26,3 %), Qozog'iston (22,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (17,6 %), Afg'oniston (12,3 %), Germaniya (5,3 %), Qirg'iz Respublikasida (0,8 %) va Turkiya (3,7 %) qayd etilgan.

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Rossiya Federatsiyasi	34,9	53,4	77,0
<i>Eksport</i>	-	9,8	17,8
<i>Import</i>	34,9	43,7	59,2
 Qozog'iston	39,2	53,8	66,6
<i>Eksport</i>	-	7,4	7,2
<i>Import</i>	39,2	46,4	59,4
 Xitoy Xalq Respublikasi	60,1	33,6	51,4
<i>Eksport</i>	-	7,3	18,2
<i>Import</i>	60,1	26,4	33,2



SIRDARO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Afg'oniston	-	15,0	36,1
<i>Eksport</i>	-	15,0	36,1
<i>Import</i>	-	-	-



Pokiston	-	0,7	4,1
<i>Eksport</i>	-	0,7	4,1
<i>Import</i>	-	-	-



Litvaya	2,0	1,8	0,2
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	2,0	1,8	0,2



Qirg'iz Respublikasi	0,6	1,8	2,7
<i>Eksport</i>	-	0,3	1,9
<i>Import</i>	0,6	1,5	0,4



Turkiya	6,5	6,0	10,9
<i>Eksport</i>	-	0,6	4,5
<i>Import</i>	6,5	5,4	6,4



Ispaniya	-	0,1	0,9
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	0,1	0,9



Germaniya	1,5	7,5	15,4
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,5	7,5	15,4




Tojikiston	0,5	4,9	1,2
<i>Eksport</i>	-	2,3	1,0
<i>Import</i>	0,5	2,6	0,3



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	292 923,2	143,0
Boyovut	13 276,9	104,3
Guliston	7 740,8	5,5 m.
Mirzaobod	10 947,4	67,1
Oqoltin	3 145,5	84,3
Sardoba	3 609,0	2,9 m.
Sayxunobod	28 719,2	2,5 m.
Sirdaryo	72 413,4	102,4
Xovos	10 308,3	104,2
Guliston sh.	32 027,6	141,9
Shirin sh.	49 856,5	169,2
Yangiyer sh.	60 611,0	2,4 m.

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Sirdaryo - 72 413,4

Shirin sh. - 49 856,5

Yangiyer sh. - 60 611,0

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Guliston – 7 740,8

Sardoba – 3 609,0

Oqoltin – 3 145,5

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **24,7 %** ulush bilan **72 413,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Oqoltin tumani **1,1 %** ulush bilan **3 145,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **52,2 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **1,9 %** ga kamaygan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-may, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-may oyida 2020-yilga ulishiga nisbatan **6,0 %** ga ko'payib va jami TSA'dagi ulushi **47,8 %** ni tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-may, ming. AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-may holatiga **152 836,5** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport - **28 979,2** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import – **123 857,3** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**50,4 %**), Qozog'iston (**43,6 %**), Qirg'iz Respublikasi (**1,5 %**), Turkmaniston (**2,1 %**) va Tojikiston (**0,8 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-may, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **146 479,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **26 912,0** ming AQSh dollari, import hajmi esa **119 567,9** ming AQSh dollariga yetdi.



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-may)



Joriy yilning yanvar-may oyida viloyatning eksportyorlari soni **128** tani tashkil etib, ular tomonidan **94 124,6** ming AQSh dollari qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan **80,3** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**15,1** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**50,0** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**1,7** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Jami eksport	51 992,8	93 925,8	103,5	180,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	24 942,1	46 989,6	75,6	188,4	48,0	50,0
Ichimliklar va tamaki	2,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10 063,1	7 585,4	108,2	75,4	19,4	8,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	315,0	0,0	90,6	0,0	0,6	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2 408,8	1 587,9	70,7	65,9	4,6	1,7
Sanoat tovarlari	8 077,5	14 207,9	148,8	175,9	15,5	15,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	557,8	1 804,1	127,6	3,2 m.	1,2	1,9
Turli xil tayyor buyumlar	3 314,7	8 558,3	157,1	2,5 m.	6,3	9,1
Xizmatlar	2 311,0	13 192,6	179,2	5,7 m.	4,4	14,1



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-may oyida **94 124,6** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **41 927,7** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	11 533,6	174,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	34 178,4	2,4 m.
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1219,6	2,4 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26,0	2,7 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	6 745,7	69,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	12,8	6,4
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	653,8	0,0
Qog'oz massasi va makulatura	94,6	17,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va maxsulotlar	1350,9	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	127,5	-
O'g'itlar	-	-
Tibbivot va farmatsevtika mahsulotlari	107,0	92,7
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6 013,6	2,2 m.
Rangli metallar	0,0	-
Cho'yan va po'lat	0,0	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	133,0	0,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3,5	0,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 641,5	2,7 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	8 116,7	2,3 m.
Har xil tayyor buyumlar	441,6	7,1 m.





MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvar-mayidagi **41,0** % dan 2021- yilning yanvar-mayida **30,8** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **69,2** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-may, % da)

2021- yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **38,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**19,0** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**19,3** %), Pokiston (**4,3** %), Qozog'iston (**7,6** %), Turkiya (**4,7** %) va Qirg'iz Respublikasi (**2,0** %), boshqa davlatlarningi eksportdagi ulushi **49,3** foizni tashkil etmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may, yillar kesimida)*




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Afg'oniston	15 475,6	36 144,6	8,5 m.	2,3 m.	1	1
Rossiya Federatsiyasi	9 756,2	17 801,7	139,2	182,5 m.	2	3
Xitoy Xalq Respublikasi	7 267,7	18 151,9	55,4	2,4 m.	4	2
Qozog'iston	7 416,8	7 157,6	41,5	96,5	3	4
Turkiya	589,8	4 451,3	30,1	7,5 m.	6	5
Pokiston	668,7	4 057,5	3,7 m.	6,0 m.	5	6
Qirg'iz Respublikasi	348,1	1 923,1	125,1	5,5 m.	7	7



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-may)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	94 124,6	180,3
Boyovut	8 081,2	86,9
Guliston	6 706,0	13,6 m.
Mirzaobod	5 636,4	145,8
Oqoltin	2 282,3	3,2 m.
Sardoba	1 292,2	137,9
Sayxunobod	8 768,6	178,8
Sirdaryo	20 656,8	164,9
Xovos	5 940,9	171,7
Guliston sh.	10 275,8	2,2 m.
Shirin sh.	600,1	37,1
Yangiyer sh.	23 785,7	2,5 m.

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Yangiyer sh. - 23 785,7

Sirdaryo - 20 656,8

Guliston sh. – 10 275,8

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin – 2 282,3

Sardoba – 1 292,2

Shirin sh. - 600,1

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **25,3** % ulush bilan **23 785,7** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,06** % ulush bilan **600,1** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **11 533,6** ming AQSh dollari qiymatli **24 801,0** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **2 144,7** ming AQSh dollarida oshganni kuzatilib, **22,8** % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **9 410,7** ming. AQSh dollariga teng **22 748,5** tonna sabzavot, shuningdek, **2 122,1** ming. AQSh dollari qiymatidagi **2052,5** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-may)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **24,5** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-may)

Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
Afg'oniston	1 688,6	1 399,6	12,1
Pokiston	2 005,0	3 219,1	27,9
Rossiya Federatsiyasi	3 040,3	1 759,5	15,3
Qozog'iston	14 925,5	3 505,9	30,4
Xitoy Xalq Respublikasi	395,0	428,8	3,7
Qirg'iz Respublikasi	153,0	186,4	1,6

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **4,8** m.% ga ko'paydi.)



SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-may)




2021- yilning yanvar-may oylarida import hajmi **198 798,6** ming AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **130,3 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**20,1 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**20,0 %**) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**13,6 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2020- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-may import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **46 217,5** ming AQSh dollariga ko'paydi va **198 798,6** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATI XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-may, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'rish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020 - y	2021 - y	2020 -y	2021 - y	2020 -y	2021 -y
Jami import	152 578,5	198 798,6	93,8	130,3	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	31 089,4	54 666,7	164,4	175,8	20,4	27,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6 130,0	5 673,2	92,8	92,5	4,0	2,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3 946,2	39 946,3	23,3	10,1 m.	2,6	20,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	282,2	2 324,5	103,6	8,2 m.	0,2	1,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	33 289,9	20 209,9	90,4	60,7	21,8	10,2
Sanoat tovarlari	9 996,1	11 638,2	92,4	116,4	6,6	5,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	61 346,4	59 518,5	76,4	97,0	40,2	29,9
Turli xil tayyor buyumlar	6 498,3	4 821,3	63,6	74,2	4,2	2,3
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-may oyida **198 798,6** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **46 217,5** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	45657,5	169,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	182,5	2,0 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1393,0	12,5 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	324,8	7,8 m.
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	1790,8	43,4 m.
Metall rudalari va metall parchalari	463,0	30,9
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	232,6	63,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	116,7	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	36297,8	23,1 m.
Ko'mir, koks va briketlar	3648,5	153,4

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2324,1	8,6 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,4	3,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)




XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	705,4	102,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3210,9	14,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6113,4	4,5 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	617,1	111,5
Буяйдиган ва терини ошловчи моддалар ва буюклар	4958,9	119,6
Ноорганик кимё моддалари	2965,3	165,5
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1302,3	47,7
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1794,5	95,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1400,4	2,8 m.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	814,2	2,2 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	37071,8	132,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	7700,4	106,1
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	2292,2	150,9
Энергия генератори машиналари ва асбоб-ускуналар	8167,8	41,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1490,2	96,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2509,2	56,3
Har xil tayyor buyumlar	442,2	2,3 m.



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-may oyi yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan 44 davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya, Avstriya va Turkmaniston) jami importning **91,8 %** ulushini tashkil qildi, bu **182 132,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-may, % da)

SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Rossiya Federatsiyasi	43 650,6	59 203,4	125,1	135,6	2	2
Qozog'iston	46 386,8	59 443,5	118,4	128,1	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	26 363,9	33 240,6	43,9	126,1	3	3
Avstriya	7 548,4	10 862,1	191,5	143,9	5	5
Turkiya	5 426,3	6 367,0	83,4	117,3	7	6
Germaniya	7 505,0	15 372,3	5,0 m.	2,0 m.	6	4
Turkmaniston	12 074,7	3 130,4	178,8	25,9	4	7

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2020- yil yanvar-may)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	198 798,6	130,3
Boyovut	5 195,7	151,7
Guliston	1 034,8	108,7
Mirzaobod	5 311,0	42,7
Oqoltin	863,2	28,5
Sardoba	2 316,8	7,9 m.
Sayxunobod	19 950,6	3,0 m.
Sirdaryo	51 756,6	89,0
Xovos	4 367,4	67,9
Guliston sh.	21 751,8	121,4
Shirin sh.	49 256,4	176,9
Yangier sh.	36 825,8	2,3 m.

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo - 51 756,6

Shirin sh. - 49 256,4

Yangier sh.- 36 825,8

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Sardoba – 2 316,8

Guliston – 1 034,8

Oqoltin - 863,2

Viloyatda importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo yumani **26,0** % ulush bilan **51 756,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda importi tarkibida eng quyi ulushni Oqoltin tumani **0,4** % ulush bilan **863,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **59 518,5** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,3** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **29,9** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-may)



18,2%	Avstriya 10 854,5 ming. AQSh dollari
28,6%	Xitoy Xalq Respublikasi 17 051,7 ming. AQSh dollari
21,0%	Rossiya Federatsiyasi 12 512,4 ming. AQSh dollari
7,8%	Turkiya 4 663,6 ming. AQSh dollari
19,1%	Germaniya 11 369,2 ming. AQSh dollari

Mashina va transport uskunalari importi hajmining ko'payishiga sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari (**111,8**), shuningdek, elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan (**2,2** m.) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.

SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar-may oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **11 638,2** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,4** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **7,6 %** ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-may)




Rossiya Federatsiyasi

6 965,3 ming AQSh dollari
ulushi – 59,8 %



Xitoy Xalq Respublikasi

1977,8 ming AQSh dollari
ulushi – 17,0 %



Qozog'iston

713,5 ming AQSh dollari
ulushi – 6,1 %



Belarus

500,6 ming AQSh dollari
ulushi – 4,3 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayorlangan buyumlar (**5678,8** ming. AQSh dollari), metallardan tayorlangan buyumlar (**1795,5** ming. AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**1 400,4** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236 86 34

